

## **TADBIRKORLIKNI INNOVATSION FAOLIYAT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING YO‘LLARI**

**U.F. G‘ofurova, B.X. Xayitboyev**

*Тошкент молия институти, Тошкент, Ўзбекистон*

Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshishida innovatsion g‘oyalar va yangiliklar yaratilishi hamda ularning amaliyotda qo‘llanilishi keng yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to‘sqinlik qiluvchi qator tizimli muammolar yoritilib ularga takliflar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tadbirkorlik faoliyati, innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion g‘oya, innovatsiyalar bozori, innovatsion loyihalar-startaplar, infratuzilma muassasalar.

В этой статье обсуждается, как инновационные идеи и инновации могут быть использованы для повышения эффективности предпринимательской деятельности и их применения на практике. Кроме того, выделяется ряд системных проблем, препятствующих дальнейшему улучшению условий для развития предпринимательства и инноваций, и предлагаются рекомендации.

**Ключевые слова:** предпринимательство, инновации, инновационный рынок, инновационные проекты - стартапы, инфраструктурные объекты.

### **Kirish**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shishini ta‘minlovchi asosiy bo‘g‘in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Respublikamizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqarorligini ta‘minlash va uni qo‘llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri qilib belgilangan.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi muhim roli shundan iboratki, uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta‘minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining oshishini ta‘minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xo‘jalik faoliyatining shakli sifatida yuqori darajada universalligi, faoliyatning keng doirasi, ixchamligi va har qanday sharoitga tez moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jamiyatni barqarorlashtirish, iqtisodiy farovonlikni oshirishning kafolati desak mubolag‘ a bo‘lmaydi.

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratib, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart. Kerak bo‘lsa, xorijdagi yetakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug‘dirib berishimiz lozim”[1].

Hozirgi kun dunyo iqtisodiyotini innovatsion yangiliklarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayni paytda jamiyat hayotida innovatsion soha shu darajada jadal rivojlanmoqdaki, iqtisodiyotda innovatsiyalarning ulushi kundan kunga oshib bormoqda va buning natijasida innovatsiya xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va inteluktual salohiyat kabi mamlakatning asosiy boyligiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo‘ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o‘ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz”[1].

A.Smit fikricha, “tadbirkor – kapital egasi. U muayyan tijorat g‘oyasini amalga oshirib, daromad olish uchun tavakkalchilik bilan ish boshlaydi, chunki kapitalni biror-bir ishga sarflash doimo tavakkalchilik bilan bog‘liqdir. Tadbirkorlikdan olingan daromad, A.Smit fikricha, shaxsiy tavakkalchilik uchun olingan mukofot. Tadbirkor ishlab chiqarishni o‘zi rejalashtiradi, tashkil etadi, ishlab chiqarish faoliyati natijalariga egalik qiladi”.

### **Tahlil va natijalar**

2018-yil 5-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 3697-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, o‘tkazilgan tahlil natijalari mamlakatda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to‘sqinlik qiluvchi, jumladan, quyidagi qator tizimli muammolar mavjudligidan dalolat beradi[2]:

*birinchidan*, hududlarning mavjud resurs bazasi va salohiyatini hisobga olgan holda ilg‘or va zamonaviy innovatsion ishlanmalar, texnologik loyihalar-startaplar va innovatsiyalar bozorini tizimli tahlil qilish yo‘lga qo‘yilmagan;

*ikkinchidan*, innovatsion loyihalar-startaplarga investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohasiga innovatsiyalarni faol joriy qiluvchi iqtidorli tadbirkorlar faoliyatiga ko‘maklashish va muvofiqlashtirish ishlari lozim darajada amalga oshirilmayapti;

*uchinchidan*, innovatsion rivojlanish sohasida, ayniqsa, joylarda ishbilarmonlik muhiti past darajada, shuningdek, innovatsion va muvaffaqiyatli texnologik loyihalar-startaplarni ishlab chiqish va ilgari surish bo‘yicha zarur ko‘nikmalarga ega tadbirkorlarning yetishmovchiligi saqlanib qolmoqda;

*to‘rtinchidan*, innovatsion g‘oyalalar, ishlanmalar va texnologiyalarning ma‘lumotlar bazasi mavjud emas, yangi resurslarni yaratish va tajribani biznes-tuzilmalarga o‘tkazish amaliyoti rivojlanmasdan qolmoqda;

*beshinchidan*, innovatsion ishlanmalar bozorini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari sust darajada ishlab chiqilgan, innovatsion g‘oyalardan samarali foydalanishni muvofiqlashtirish yo‘lga qo‘yilmagan, innovatsion ishlanmalarning sifati esa bozor talablariga javob bermaydi;


*oltinchidan*, innovatsion ishlanmalar, texnologik loyihalar-startaplar sohasiga texnika oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari va iqtidorli yoshlarni jalb etishga, shuningdek, biznes-inkubatorlarni yaratishga lozim darajada e‘tibor qaratilmayapti;

*yettinchidan*, aholi o‘rtasida innovatsion tadbirkorlikni ommalashtirish ishlari samarali olib borilmayapti, innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishga va ilgari surishga jalb qilishda texnik va psixologik to‘siqlar saqlanib qolmoqda.

Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsiyaning ahamiyati juda ham katta. Korxonalarda innovatsion yangiliklarni o‘z vaqtida va o‘z o‘rnida qo‘llash xarajatlarning keskin kamayishiga hamda mehnat unumdorligining o‘shishiga olib keladi. Buni biz rivojlangan mamlakatlar tajribasida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Masalan Yaponiya, Amerika, Germaniya kabi mamlakatlar shular jumlasidandir.[3] “Forbes” jurnalining ma‘lumotiga ko‘ra, dunyodagi eng yuqori darajadagi innovatsion kompaniyalarning deyarli 10 foizi Yaponiyada joylashgan ekan. Dunyoni o‘zgartira olgan eng katta ixtirolarning ko‘pchiligi aynan Yaponiyada yaratilgan. Masalan, cho‘ntak kalkulyatori (1970), android robotlar (2003), ekspress poyezdlari (1964) va boshqalar”[4]. Endi Germaniyaga to‘xtaladigan bo‘lsak, “National Geographic” Germaniyani “Yevropaning eng kuchli iqtisodiy va industrial kuchi” deb ta‘riflaydi, chunki Germaniya tadqiqot, texnologiya va ilm-fanni rivojlantirishga juda ko‘p kuch va vaqt sarflaydi. Gete institutining ma‘lumotiga ko‘ra, “2016-yilda Germaniya hukumati tomonidan 80 milliard yevro ilmiy tadqiqotni rivojlantirishga ajratilgan. Germaniya bu borada AQShdan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan yirik global investordir. Germaniya tadqiqot va rivojlanishga katta miqdorda iqtisodiy chiqimlarni bag‘ishlaydigan eng yaxshi o‘n mamlakat ichida. Shuningdek, u yangi innovatsiyalarni yaratish bo‘yicha ham birinchi o‘ntalikda”. Bilamizki, Germaniya – kichik va o‘rta biznes mamlakatidir. Germaniyada 500 tagacha ishchisi bo‘lgan har qanday tadbirkorlik kichik biznes hisoblanadi va u

yerdagi kompaniyalarning 99 foizini aynan shu turdagi kompaniyalar tashkil etadi. Buni aniq sonlar bilan aytganda 3,6 mln kompaniya yoki Germaniyadagi barcha ish o‘rinlarining 80 foizi demakdir” [5]. Bulardan shu narsa yaqqol ko‘rinadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining taqdirini belgilaydigan asosiy omildir.

Rivojlanayotgan davlat sifatida O‘zbekistonda ham kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta‘minlashning muhim makroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda kichik biznes taraqqiyoti natijasida ularning mamlakatga yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot salmog‘idagi ulushining ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin. (1-rasm)




***1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi.***

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.*

1-rasmda keltirilgan ma‘lumotlarga asosan O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM dagi ulushi 2000-yilda 31 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2017-yilga kelib 53,3 foizga yetdi va 2000-yilga nisbatan 1,7 barobar oshdi. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlanayotgani samarasi bo‘lib, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishiga unga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma muassasalarining tashkil etilishi va xizmat sifati darajasining yaxshilanib borayotganligidan deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar 2017-yil davomida 38,2 mingdan ortiq yangi kichik tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish imkonini berdi yoki 2016-yilga nisbatan 122,0 foizga ko'paydi. Mazkur kichik biznes subyektlarining eng ko'p qismi sanoat tarmog'ida (27 foiz), savdo sohasida (21 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (13 foiz) va qurilish tarmog'ida (10 foiz) tashkil etgan (2-rasm).



**2-rasm. 2017-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foizda)[6].**

2018-yil yanvar-sentabr oylariga kelib, 38,1 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilinib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,6 foizga ko'paydi. Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (23,1 foiz), sanoat tarmog'ida (22,4 foiz), qurilish tarmog'ida (12,9 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (11,8 foiz), yashash va ovqatlanishda (7,6 foiz), tashish va saqlashda (4 foiz) tashkil etilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati shuki, uning uchun mintaqaviy omillar qoida tariqasida, investorlar jalb etish jarayoniga ta'siri jihatidan ustunlik qiladi. Investitsiyaviy muhit tahlilini tarmoqlar bo'yicha olib borish zarurligini ko'rsatib o'tish kerak. Chunki, ijobiy investitsiyaviy omillar turli tarmoqlar uchun o'ziga xos jihatlarga ega. Shu bois ham, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ish muhitini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar faol davom ettirilmoqda. Bu esa o'z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hududlar bo'yicha ulushini ham oshirmoqda.

**2017- yil yanvar-dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi (foizda) [7]**

	<b>Sanoat</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Bandlik</b>
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>39,6</b>	<b>58,4</b>	<b>65,1</b>	<b>78,3</b>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	18,0	61,3	79,2	75,2
<b>Andijon</b>	34,4	73,7	94,3	84,5
<b>Buxoro</b>	43,4	74,9	67,8	78,5
<b>Jizzax</b>	61,3	74,2	91,3	82,0
<b>Qashqadaryo</b>	23,1	71,9	76,8	80,0
<b>Navoiy</b>	18,8	67,3	75,4	60,3
<b>Namangan</b>	68,4	73,7	93,9	83,4
<b>Samarqand</b>	55,5	76,5	92,3	84,5
<b>Surxondaryo</b>	45,8	76,3	79,4	81,1
<b>Sirdaryo</b>	44,9	66,4	91,4	79,5
<b>Toshkent</b>	29,6	76,2	79,2	77,0
<b>Farg‘ona</b>	41,4	75,9	89,0	80,5
<b>Xorazm</b>	40,6	71,4	87,2	82,9
<b>Toshkent shahri</b>	71,3	51,1	66,8	56,8

1-jadval ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha sanoat tarmog‘ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eng ko‘p ulushi 73,1 foiz bilan Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa eng kam ulushga ega bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 53 foizga ko‘pdir. 2018-yil yanvar-sentabr oylariga kelib esa Toshkent shahrining sanoat tarmog‘ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning ulushi 71,6 foizni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida ko‘rinib turibdiki, 2017-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eng ko‘p ulushi 76,5 foiz bilan Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrida esa bu ko‘rsatkich 51,1 foizni tashkil etib, Samarqand viloyatidan 25,4 foizga kamdir. 2018-yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushida eng yuqori ko‘rsatkichni Toshkent viloyati 74,3 foiz bilan oldinga chiqib oldi.

Tadbirkorlar faoliyatining samaradorligini oshishida innovatsion yangiliklar yaratilishi hamda ularning amaliyotda qo‘llanilishi juda ham muhim hisoblanadi. Bu borada ham yurtimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ilmiy-texnika dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy-texnika loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan 92,4 milliard so‘m, innovatsion loyihalarga 15,7 milliard so‘m mablag‘lar mamlakatimizning ilmiy, ilmiy-texnik salohiyatini yanada rivojlantirishda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, kichik biznesni rivojlantirishda



hamda ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy va xalqaro tajribadan ma'lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darajasi ko'p jihatdan innovatsion faoliyatga bog'liq. Binobarin, iqtisodiyotdagi samaradorlik ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolarning joriy etilishi evaziga oshadi.

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqtisodiyotda tub o'zgarishlar bo'layotgan sharoitida innovatsion tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni, aholi farovonligini oshirishdagi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyatiga halaqit berayotgan, to'sqinlik qilayotgan yoki qilishi mumkin bo'lgan muammolarni muntazam ravishda o'rganib borish va o'z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

- hududlardagi bo'sh yoki samarali foydalanilmayotgan bino va inshootlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlarning qisqa muddatlarda olinishi hamda ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilishi jarayonlarini samarali tashkil etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish borasida har bir hududdagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqqan holda mavjud barcha imkoniyatlarni safarbar etish;

- hududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish yo'lidagi har qanday byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

- hududlardagi kichik biznes subyektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va boshqa shu kabi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi jarayonlariga e'tibor qaratish hamda bu boradagi ilg'or tajribalarni qo'llash;

- hududlarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyat yo'nalishlari jihatidan tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlarini qo'llash, xususan, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishning turli yo'l va choralarini izlab topish;

- hududlardagi eksportga mahsulot chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga aniq va ta'sirchan yordam ko'rsatish orqali ularning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish;

Shuningdek, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash lozim.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr, <http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>
2. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 3697-sonli qarori 2018-yil, 5-may. <http://uza.uz/uz/documents/faol-tadbirkorlik-va-innovatsion-faoliyatnirivojlantirish-uc-07-05-2018>
3. Олимова Н. Х., Юлдашев Д. Т. The role of small business and private entrepreneurship in the economic activities // Молодой ученый. — 2016. — №9. — С. 682-683.
4. [www.weforum.org](http://www.weforum.org) (World economic forum)
5. [www.make-it-in-germany.com](http://www.make-it-in-germany.com)
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi rasmiy veb sayti: <https://mineconomy.uz/uz/node/2093>
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi rasmiy veb sayti: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
8. Dr. Jay A. Dewhurst “Biznesga kirish va biznesni rivojlantirish” 1-nashr 2014 yil. bookboon.com. ISBN-978-87-403-0758-0